

Universitetning “Tabiiy fanlar” fakulteti talaba yoshlari orasida “Stop_korrupsiya” xeshtegi ostida chellendj tadbiri amalga oshirildi

Joriy yilning 8-noyabr kuni universitetning “Tabiiy fanlar” fakulteti talaba yoshlari orasida “**Stop_korrupsiya**” xeshtegi ostida “**Biz yoshlar — korrupsiyaga qarshimiz**” mavzusida chellendj tadbiri amalga oshirildi.



O‘tkazilgan chellendj tadbiri korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida talaba yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish, ularning korrupsion jarayonlar ishtirokchisiga aylanib qolishlari kabi noxush holatlarning oldini olish, universitet xodimlari orasida korrupsiyaga qarshi toqatsiz immunitetni shakllantirish hamda oliy ta’lim sohasini korrupsiyasiz sohaga aylantirish maqsadida tashkil etildi.



“Milliy libos va san’at” fakultetida «Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosobatni shakllantirish» va “Korrupsiya rivojlanishimizga to‘siq” mavzularida davra suhbat tadbiri amalga oshirildi.

12-noyabr kuni Termiz davlat universiteti “Milliy libos va san’at” fakultetida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha talaba yoshlar klubi a‘zolari ishtirokida “Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosobatni shakllantirish” va “Korrupsiya rivojlanishimizga to‘siq” mavzularida davra suhbat tashkil etildi.

Tadbirda universitet korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens - nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i U.Devonov, bo‘lim bosh mutaxassisi A.Mansurov, fakultet dekani va uning yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari ishtirok etishdi.



Tadbirda soʻzga chiqqanlar, Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim boʻlgan global muammolardan biri ekanligi, ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazib, inson huquq va erkinliklarining poymol boʻlishiga olib kelishi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olganligini aytib oʻtishdi.



Tadbir jarayonida ishtirokchilarga korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha muvaffaqiyatli natijalarga erishgan xorijiy davlat tajribasi aks ettirilgan “Korrupsiyani yenggan mamlakat – Singapur moʻjizasi”, “Qoloqlikdan gurkirab ketgan Singapur”. “Singapur poraxoʻrlikni qanday yengdi”. “Li Kuan Yu korrupsiyani yoʻqotish stili bilan tanishing” sarlavhali videoroliklar namoyish etildi.

Universitetning “Fizika matematika” fakulteti talaba yoshlari ishtirokida “Korrupsiyaga qarshi kurashish muhim vazifa” mavzusida davra suhbatlari va “Stop korrupsiya” xeshtegi ostida chellendj tadbiri amalga oshirildi

11-noyabr kuni universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi, yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti kordinatori va “Fizika matematika” fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari xamkorligida **“Korrupsiyaga qarshi kurashish muhim vazifa”** mavzusida davra suhbatlari va “Stop korrupsiya” xeshtegi ostida oliygohning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida chellendj tadbirlari amalga oshirildi.

Ushbu chellendj tadbirini o'tkazishdan maqsad korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida talaba yoshlarning huquqiy bilimlarini yanada oshirish, ularning korrupsion jarayonlar ishtirokchisiga aylanib qolishi kabi noxush holatlarning oldini olish, universitet xodimlari va talaba yoshlari orasida korrupsiyaga qarshi toqatsiz immunitetni shakllantirish hamda oliy ta'lim sohasini korrupsiyasiz sohaga aylantirishdan iborat.

Tadbir jarayonida korrupsiya tushunchasi va korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni belgilovchi me'yoriy - huquqiy asoslar yoritildi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muvaffaqiyatli natijalarga erishgan xorijiy davlat tajribasi aks ettirilgan **“Korrupsiyani yenggan mamlakat – Singapur mo'jizasi”** sarlavhali videorolik talabalarga namoyish etildi.



Termiz davlat universitetida “Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosobatni shakllantirish” maqsadida “Korrupsiya rivojlanishimizga to’siq”, “Yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish” va “Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish” mavzularida davra suhbatini bo‘lib o‘tdi

Joriy yilning 15-noyabr kuni Termiz davlat universiteti “Kimyo” fakulteti faollar zalida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-son Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturining 25-bandida belgilangan **“Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosobatni shakllantirish”** vazifasiga ko‘ra korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari vakillari bilan oliygohning “O‘zbek filologiyasi” va “Ijtimoiy fanlar” fakultetlari professor-o‘qituvchilari va talaba yoshlari ishtirokida davra suhbatini tadbiri amalga oshirildi.



Davra suhbatida Surxondaryo viloyati IIB jinoyat qidiruv boshqarmasi korrupsiyaga va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish bo‘limi xodimi - J.Nafasov, Surxondaryo viloyati Termiz shahar Adliya bo‘limi yuridik xizmat ko‘rsatish markazi bosh yuriskonsulti - V.Nazarov, Jinoyat ishlari bo‘yicha Termiz shahar sudi sudyasi - Sh.Yuldashev, Surxondaryo viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha sudyasi - N.To‘rayeva, Termiz tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi - B.Abdullayev, Surxondaryo viloyati IIB Tergov boshqarmasi tergovchisi - Sh.Raximov, Termiz shahar prokurorining katta yordamchisi - D.Karimov hamda fakultet dekanlari, ularning Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari, 12 nafar professor-o‘qituvchilar va tyutorlar hamda 400 nafar talaba yoshlar qatnashishdi.

Tadbir jarayonida ishtirokchilarga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muvaffaqiyatli natijalarga erishgan xorijiy davlat tajribasi aks ettirilgan **“Korrupsiyani yenggan mamlakat – Singapur mo‘jizasi”, “Qoloqlikdan gurkirab ketgan Singapur”. “Singapur poraxo‘rlikni qanday yengdi”. “Li Kuan Yu korrupsiyani yo‘qotish stili bilan tanishing”** sarlavhali videoroliklar namoyish etildi.

Tadbirda so‘zga chiqqanlar, Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo‘lgan global muammolardan biri ekanligi, ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazib, inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib kelishi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olganligini aytib o‘tishdi.



Termiz davlat universiteti “Xorijiy filologiya” fakulteti professor-o‘qituvchilari va talaba yoshlari ishtirokida “Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosobatni shakllantirish”, “Korrupsiya rivojlanishimizga to‘siq” va “Korrupsiyaga qarshi kurashish muhim vazifa” mavzularida davra suhbatlari o‘tkazildi

Joriy yilning 21-noyabr kuni Termiz davlat universiteti “Xorijiy filologiya” fakulteti professor-o‘qituvchilari va talaba yoshlari orasida “Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosobatni shakllantirish”, “Korrupsiya rivojlanishimizga to‘siq” va “Korrupsiyaga qarshi kurashish muhim vazifa” mavzularida davra suhbatlari o‘tkazildi. Davra suhbatida universitet korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i U.Devonov, bo‘lim bosh mutaxassisi A.Mansurov, fakultet dekani P.Bakirov hamda 7 nafar o‘qituvchilar va tyutorlar, 100 nafar talaba yoshlar qatnashishdi.



Tadbirda soʻzga chiqqanlar korrupsiyaning xavf-xatarlari, ushbu illatga imkoniyat yaratuvchi sabablar, shart-sharoitlar va oqibatlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi haqida maʼruza qilishdi. Shuningdek, ular kelajak egalari boʻlgan yoshlarning korrupsiyaga qarshi murosasiz ruhda taʼlim-tarbiya olishi muhim ahamiyatga egaligini hamda ushbu illatga qarshi kurashish – barchamizning burchimiz ekanini alohida taʼkidlab oʻtishdi.



Termiz davlat universitetida “9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi!” mavzusida eng yaxshi rasmlar, eng yaxshi insholar va eng yaxshi videoroliklar tanlovini tashkil etildi.

Joriy yilning 20-noyabr kuni universitet rektorining ““9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan universitetda “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi!” mavzusida eng yaxshi rasmlar, eng yaxshi insholar va eng yaxshi videoroliklar tanlovini tashkil etish to‘g‘risida”gi 156-U-son buyrug‘iga asosan Surxondaryo viloyati Adliya boshqarmasi bilan xamkorlikda “Milliy libos va san’at” fakulteti xududida “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi!” mavzusida eng yaxshi rasmlar tanlovi o‘tkazildi. Tadbirda jami 28 nafar talaba qatnashib, o‘z mahoratlari va ijodiy imkoniyatlarini amalda sinab ko‘rishdi.

Eng yaxshi rasmlar tanlovi ishchi guruhi a‘zolari va mutaxassislar tomonidan talabalarning ishlari ko‘rib chiqilib, ular quyidagicha baholandi:

1-o‘ringa “Milliy libos va san’at” fakulteti 2-kurs D-123-guruh talabasi Ashikov Alisher Ismailovich;

2-o‘ringa “Milliy libos va san’at” fakulteti 2-kurs D-123-guruh talabasi O‘roqova Sarvara G‘ulomovna;

3-o‘ringa “Milliy libos va san’at” fakulteti 1-kurs RD-124-guruh talabasi Abdulazizova Mubina Bo‘ri qizi munosib deb topildi.

Shu kuni Surxondaryo viloyati Adliya boshqarmasi bilan xamkorlikda universitetning “Axborot resurs markazi” binosida “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi!” mavzusida eng yaxshi insholar tanlovi o‘tkazildi. Tadbirda jami 35 nafar talaba qatnashib, o‘z mahoratlari va ijodiy imkoniyatlarini amalda sinab ko‘rishdi.

Eng yaxshi insholar tanlovi ishchi guruhi a'zolari talabalarning insholarini ko'rib chiqishib, ularni quyidagicha baholashdi:

1-o'ringa "Xorijiy filologiya" fakulteti 1 kurs 324-guruh talabasi Saitmurodova Dinora Shamsitdin qizi;

2-o'ringa "Xorijiy filologiya" fakulteti 1-kurs 224-guruh talabasi Achilova Mohinur Nurali qizi;

3-o'ringa "O'zbek filologiyasi" fakulteti 3-kurs 222-guruh talabasi Mamanazarova Gulzoda Parda qizi va "Iqtisodiyot va turizm" fakulteti 3-kurs 122-guruh talabasi Bekmurodova Xurshida Alisher qizi munosib deb topildi.

"Yoshlar korrupsiyaga yo'q deydi!" mavzusida **eng yaxshi videoroliklar** tanlovi ishchi guruhi a'zolari talabalarning videoroliklarini ko'rib chiqishib, ularni quyidagicha baholashdi:

1-o'ringa "Tarix" fakulteti 3-kurs 122-guruh talabasi Uralov Azizbek Zafar o'g'li;

2-o'ringa "Yuridik" fakulteti 2-kurs 123-guruh talabasi Raxmatullayeva Parizod Xolmamat qizi;

3-o'ringa "Iqtisodiyot va turizm" fakulteti 1-kurs 224-guruh talabasi Qurbonmurodov Muslimbek O'ktamovich munosib deb topildi.



Termiz davlat universitetida “Antikorrupsiya bilimdoni” mavzusidagi bilimlar bellashuvi o‘tkazildi

22-noyabr kuni universitet rektorining “Antikorrupsiya bilimdoni” mavzusidagi bilimlar bellashuvini o‘tkazish to‘g‘risida”gi 90-U-son buyrug‘iga asosan “Yuridik” fakultetida “Antikorrupsiya bilimdoni” mavzusida bilimlar bellashuvi tadbiri o‘tkazildi. Tadbirda 12 ta jamoa (xar bir jamoa 5-6 ta talabada iborat) qatnashib, o‘z mahoratlarini va bilimlarini amalda sinab ko‘rishdi.

“Antikorrupsiya bilimdoni” mavzusida o‘tkazilgan bilimlar bellashuvi ishtirokchilarining savollarga berilgan javoblari o‘rganib chiqilib, hakamlar hay’ati tomonidan ular quyidagicha baholandi:

1-o‘ringa “Yuridik” fakulteti jamoasi (Panjiyev Asliddin Sharofiddinovich, magistr 1 kurs talabasi);

2-o‘ringa “Tarix” fakulteti jamoasi (Turopov Sanjar Ismoilovich, “Tarix” fakulteti 2 kurs talabasi);

3-o‘ringa “Xorijiy filologiya” (Norsoatova Jasmina Umid qizi, “Xorijiy” filologiya fakulteti 3 kurs talabasi) va “O‘zbek filologiya” (Abdurahmonov Abduvali Abdumalik o‘g‘li, “O‘zbek filologiyasi”, 2 kurs talabasi) jamoalari munosib deb topildi.



26-noyabr kuni “Yuridik” fakulteti faollar zalida Surxondaryo viloyati Adliya boshqarmasi xodimlari bilan xamkorlikda **“Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi!”** mavzusida eng yaxshi rasmlar, eng yaxshi insholar va eng yaxshi videoroliklar tanlovi hamda “Antikorrupsiya bilimdoni” mavzusidagi bilimlar bellashuvi g‘oliblarini diplom, pul mukofotlari va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.



“9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”

munosabati bilan universitetning “Axborot texnologiyalari” va “Tarix” fakultetlari tyutorlari va talaba yoshlarining hamda 1-kurs magistratura talabalarining “Korrupsiyaga qarshi kurashish” yo‘nalishida huquqiy bilim va saviyalarini oshirish borasida davra suhbatlari bo‘lib o‘tdi

Joriy yilning 27-, 28- va 29-noyabr kunlari “9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan “Tarix” va “Axborot texnologiyalari” fakulteti tyutorlari va talaba yoshlarida hamda 1-kurs magistratura talabalarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida oliygoh Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo‘limi xodimlari tomonidan davra suhbatlari tadbirlari amalga oshirildi.



Tadbirlar jarayonida tyutorlar va talaba yoshlarga hamda 1-kurs magistratura talabalariga O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi (O‘RQ-419-son, 2017-yil 3-yanvar) va “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunlari (O‘RQ-931-son, 2024-yil 5-iyun), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-210-son va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-228-son qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 829-son qarori mazmun-mohiyati va ahamiyati tushuntirildi.



Tadbirlar jarayonida ishtirokchilarga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muvaffaqiyatli natijalarga erishgan xorijiy davlat tajribasi aks ettirilgan **“Korrupsiyani yenggan mamlakat – Singapur mo‘jizasi”, “Qoloqlikdan gurkirab ketgan Singapur”**. **“Singapur poraxo‘rlikni qanday yengdi”**. **“Li Kuan Yu korrupsiyani yo‘qotish stili bilan tanishing”** sarlavhali videoroliklar namoyish etildi.

